

O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING IT SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ERISHILGAN YUTUQLAR VA MAVJUD MUAMMOLAR

F.D.Shermanova

p.f.f.d (PhD) Toshkent amaliy fanlar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11300399>

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatimizda ayollarning texnika sohasida yetakchi o'rinlarni egallashiga qaratilgan tizimli islohotlar yoritilgan. Hozirda shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar davrida ayol-qizlarning o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga berilayotgan imkoniyatlar va qiynayotgan masalalar hamda qator takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Jamiyat, IT sohasi, xotin-qizlarga e'tibor, gender nomutanosiblik, loyihalar, IT markazlar, IT savodxonlik.

ДОСТИЖЕНИЯ И СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ В РАЗВИТИИ СОБАЧЬЕЙ ГРАМОТНОСТИ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье освещаются системные реформы, направленные на то, чтобы женщины заняли лидирующие позиции в техническом секторе нашего общества. В настоящее время, в эпоху бурно развивающихся цифровых технологий, для реализации своих способностей и возможностей женщинами и девушками были выдвинуты ряд предложений по созданию условий, всесторонней поддержке, предоставляемых им возможностей и проблем.

Ключевые слова. Общество, IT-индустрия, внимание к женщинам, гендерный дисбаланс, проекты, IT-центры, IT-грамотность.

ACHIEVEMENTS AND EXISTING PROBLEMS IN THE DEVELOPMENT OF CANINE LITERACY FOR WOMEN IN UZBEKISTAN

Abstract. This article covers systematic reforms aimed at the leading positions of women in the field of technology in our society. In the era of digital technologies, which is now rapidly developing, a number of proposals have been made to create conditions for the realization of women's abilities and capabilities, to provide comprehensive support, the opportunities and challenges that are being given to them.

Keywords. Society, IT industry, attention to women, gender disparity, projects, IT centers, IT literacy.

KIRISH

Hozirda shiddat bilan rivojlanib borayotgan hayotimizni raqamli texnologiyalarsiz, internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Bugungi kunda informatsion texnologiyalar savodxonligi o'qish va yozishni bilishdek dolzarb bo'lib qoldi. Dunyo aholisining uchdan bir qismigina informatsion texnologiyalari(IT)dan to'g'ri foydalana oladi. Bugungi axborot texnologiyalari asrida har bir soha vakili IT bo'yicha kerakli ko'nikmalarga ega bo'lish kerak, chunki har qanday davlat va kompaniya rivojlanishida bu sohaning o'rni beqiyos. Bugungi kunda boshqa davlatlardagidek, hozir O'zbekistonda ham texnika sohasida ayollar soni kam. O'zbekistonda IT soxasida gender nomutanosiblik kuzatiladi. Aholidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida hali ham jamiyatda

texnika fanlari qizlardan ko'ra o'g'il bolalarga xos, degan fikrlar mavjud. Bu kabi qarashlar qanchadan-qancha ayol-qizlarning texnologiyadan tezda "sovushiga" va ayollar uchun an'anaviy hisoblangan sohalarga ketishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, jamiyat rivojini xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois ayollarning oilada ham, davlat va jamoat ishlarida ham emin-erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish yo'lida mamlakatimiz miqyosida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur hamda 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. 2030 – yilga qadar tenglik strategiyasi orqali barcha uchun teng huquq va sifatli ta'limni ta'minlash, qizlarning oliy ma'lumotga ega bo'lishi, zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik kabi masalalarni qamrab olgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagi ta'kidlangan xujjatlar ijrosini ta'minlash borasida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan tizimli ishlar tahsinga loyiq. Jumladan;

✓ 2021 –yilda ayollar tadbirkorligi dasturi doirasida mingdan ziyod xotin –qizlarga oilalar tadbirkorligi doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion kredit va subsidiya ajratilib, 320 ming xotin – qizlar doimiy ish o'rinlariga ega bo'ldi.

✓ 2021 –yilda 190 ming nafar ayollar kasb – hunarga o'qitildi. Bundan tashqari, 4 mingdan ziyod xotin –qizlarga uy –joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratilmoqda

✓ 2023 – o'quv yilidan boshlab, magistraturada o'qiyotgan barcha xotin- qizlarning kontrakt pullarini to'liq budjetdan qoplab berish uchun har yili 200 mlrd so'm mablag' va doktoranturada ilmiy tadqiqotlar olib borishlari uchun xotin – qizlarga har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilyapti.

Aynan xotin-qizlarimizni IT savodxonligini rivojlantirish borasida Respublikamizning turli hududlarida ma'sul tashkilotlar - Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, "Dasturiy maxsulotlar va axborot texnologiyalar texnologik parki" MChJ oliy ta'lim muassasalari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari, Toshkent shahridagi Inha va Amiti universitetlari bilan hamkorlikda "ITWomenUz- 2021" loyihasi amalga oshirildi. Loyiha doirasida xotin-qizlarning AKT yo'nalishidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan 16 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yosh ayollar uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etildi. Loyiha doirasida:

✓ IT Women – Karakalpakstan (Raqamli texnologiyalar vazirligi ko'magida USAID bilan hamkorlikda). Qoraqalpog'istondagi ayollar va qizlar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha o'quv dasturi. Loyiha doirasida 60 nafar xotin-qizlar bepul ta'lim oldi (30 nafar ayol grafik dizayn, 30 nafari SMM bo'yicha kurslarda qatnashdi).

✓ Skills4Girls (UNICEF bilan). 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan qizlar, shu jumladan turli shakldagi nogironligi bo'lgan qizlar uchun IT bo'yicha o'quv dasturi. Skills4Girls raqamli savodxonlik loyihasi 214 nafar ishtirokchi, jumladan, 70 nafar imkoniyati cheklangan qizlarga ta'lim berdi.

✓ "GAP" ayollar IT klubi. IT sohasida ayol kadrlar yetishmovchiligi bilan bog'liq muammoni hal qilishga qaratilgan munozara klubi. Klub tashkilotchilari tomonidan bugungi kunga qadar tashkil etilayotgan tadbirlar, loyihalar, uchrashuvlar respublikamizning turli hududlarida tashkil etilmoqda

✓ Digital Internship Program. Axborot texnologiyalari bo'yicha bitiruvchilar va boshlang'ich bosqichdagi yosh mutaxassislar uchun amaliyot dasturi. Uning doirasida 53 nafar qiz IT-kompaniyalarda amaliyot o'tash imkoniyatiga ega bo'ldi. Shundan 23 nafari ishga joylashdi, qolganlari esa korxonalarda o'z amaliyotini uzaytirish imkoniga ega bo'ldi.

Loyihalar doirasida tashkil etilayotgan kurslarda ayol-qizlarimiz kompyuter savodxonligi hamda muvaffaqiyatli biznes loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha asosiy bilimlarga ega bo'lish mumkin. Kurslar butun mamlakat bo'ylab IT Park huzuridagi IT markazlar asosida o'tkaziladi. O'qish bepul, oflayn tarzda, o'zbek tilida tashkil etiladi. Ushbu loyiha doirasida bugungi kunga qadar amalga oshirilayotgan ishlar barchasi xotin qizlarimizni IT soxasiga yanada kengroq jalb qilish, qo'llab quvvatlash, IT savodxonligini oshirishga qaratilgan. Respublikamizda amalga oshirilayotgan bu kabi loyihalar, "IT sohasi qizlar uchun emas" degan fikrlarni yo'qqa chiqarmoqda.

Bu qilinayotgan ishlar tahsinga loyiq albatta. Ammo aholimiz orasida nafaqat chekka tuman qishloqlarda hattoki shahar ichida ham ijtimoiy himoyaga muhtoj, og'ir vaziyatga tushgan, o'rta ma'lumotli ayollar, nogiron farzandi bor uyda yolg'iz ayollar ayniqsa, imkoniyatlar chegaralangan qishloq joylarida, ishsiz ayollar qanchalar yordamga muhtoj. Bu ayollarning o'sha kurslarga ro'zg'oridan orttirib, yo'l kira sarflab kelolmasligi ko'pincha e'tibordan qolib ketadi. Bu kabi ehtiyojmand ayollar temir daftarlarga kiritilib ba'zida yordam puli yoki ko'pchilik xotin-qizlarga ish bilan ta'minlash maqsadida turli tikish va boshqa jihozlar berilmoqda, ammo kasbiy malaka berilmasdan, ya'ni «baliq tutishni o'rgatuvchi» maxsus o'quvchisiz berilgan jihozlar, afsuski, ishlatilmasdan qolmoqda. Kundan kunga raqamlashib borayotgan jamiyatimizda xizmatlar onlayn oson bajarilayotgan bir paytda ayol qizlarimiz hali ham mavjud imkoniyatlardan foydalana olmasdan davlat xizmatlari yagona darcha bo'limlarida uzundan uzun navbatda turishmoqda. Internetdan, ijtimoiy tarmoqlardan kelgan yolg'on yordam puli xabarlariga ishonib aldanmoqda.

Ular bu boradagi bilimlarini oshirish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalana olishlari uchun maxsus axborot texnologiyalariga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, raqamli savodxonligini oshirish zarur. Bunda o'zbek tilidagi qo'llanma va videodarsliklarning o'rni beqiyos. Bugungi kunda kundalik hayotimizda har bir ayol -qiz bilishi lozim bo'lgan IT bilimlaridan:

- boshlang'ich kompyuter savodxonligi
- mobil qurilmalar, mobil ilovalardan foydalanish
- elektron hukumat va davlat interaktiv xizmatlaridan foydalanish
- Office dasturlari va multimedia
- Internet. Ijtimoiy tarmoqlar
- axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik

- tikish va boshqa jihozlardan foydalanish uchun video qo'llanma
- Bu kabi kundalik dolzarb bo'lgan bilimlar televideniada maxsus ko'rsatuvlar berib borilishi, sodda va tushunarli videoroliklar tayyorlanib, TV va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqatilishini ta'minlash oz bo'lsada imkoniyatlari chegaralangan ayol - qizlarimizni texnika va kommunikatsiya asrida dunyoqarashi, fikri rivojlanishi, internetdan xavfsiz va unumli foydalanish ko'nikmalarini beradi.

Адабиётлар руйхати:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/docs/5899498>
2. 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasi (2021). 2-bob. / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining SQ-297-IV-son qarori. // <https://lex.uz/docs/5466673>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "2022 - 2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy Dastur" (2022). // <https://lex.uz/docs>. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
4. IT WOMEN loyihasi <https://it-park.uz/>